

## **INTELLEKT VA TAFAKKURNING SHAXS MA'NAVIY VA AXLOQIY RIVOJLANISHIDAGI O'RNI**

**Narkulov Xusan Ismoilovich**

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi.

### **ANNOTATSIYA**

Madaniyat va san'at – jamiyatning bebaho xazinasi, inson tafakkurining buyuk kashfiyotidir. Bu sohalar ijod va mahoratning, tinimsiz izlanishning eng oliv darajasida yaratilgandagina inson ko'nglini ishg'ol qila oladi. Ijodiy tafakkur va qobiliyat egalari esa insonlar ko'z o'ngida hayratlar yaratadilar, insonga mislsiz kuch-g'ayrat ato etadilar.

Zero, har bir xalqning san'ati shu xalqni dunyoga tanitadi, jahon sahnalarida shu xalqning nomidan so'z aytishga sharoit yaratadi.

**Kalit so'zlar:** Psixologiya, ma'daniyat, intellekt va tafakkurning shaxs ma'naviy va axloqiy rivojlanishidagi o'rni, qobiliyat, muloqot, nutq, muomala, madaniyat.

### **KIRISH**

O'zbekiston mustaqilligiga bag'ishlangan tadbirda Prezident Sh.Mirziyoyev yurtimizda Uchinchi Renessans davriga poydevor qo'yilayotganini alohida ta'kidladilar. Ilmu ijod har qanday quroldan, har qanday tabiiy boylikdan, har qanday kuchdan afzal ekanligi, ma'rifatli, teran tafakkurli millatning ertasi yorug' bo'lmog'ini e'tirof etdilar. Bu-yoshlarning ilmu ijod cho'qqilarini egallashlari, dunyo sahnasida O'zbekiston nomidan bo'y ko'rsatishlari uchun olib borilayotgan har qanday tashabbus keng qo'llab-quvvatlanishining isbotidir.

Madaniyat va san'at – jamiyatning bebaho xazinasi, inson tafakkurining buyuk kashfiyotidir. Bu sohalar ijod va mahoratning, tinimsiz izlanishning eng oliv darajasida yaratilgandagina inson ko'nglini ishg'ol qila oladi. Ijodiy tafakkur va qobiliyat egalari esa insonlar ko'z o'ngida hayratlar yaratadilar, insonga mislsiz kuch-g'ayrat ato etadilar.

Zero, har bir xalqning san'ati shu xalqni dunyoga tanitadi, jahon sahnalarida shu xalqning nomidan so'z aytishga sharoit yaratadi.

Shaxs ma'naviy kamoloti jismoniy, ahloqiy va ijodiy bosqichlardan iborat bo'lib, bu borada uning fikrlashi yetakchi, ustuvor o'rin egallaydi. Hozirgi davr yoshlari jismoniy, axloqiy jihatdan komillik darajasiga yengillik bilan erishsada, lekin ijodiy kamolotga yetishishga esa asab tizimining taranglashuvi, ijodiy zo'riqish, hissiy

jiddiyashuv barqaror irodaviy akt, uzlusiz faollik, fidoiylik namunalari evaziga bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshishi mumkin.

Komil inson bo'lib kamol topishni ezgu niyat qilgan bo'lg'usi mutaxassis ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat va qadriyatlar egallash uchun hamda kelajak rivojini ta'minlash uchun o'quvchilarda ijodiy fikrlashni, ijodiy izlanishni, ijodiy faoliyat usullarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Shaxs alohida mohiyatan ma'naviy-axloqiy olam bo'lib, u o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy gumanitar fanlarda o'z yo'nalishi, tadqiqot ob'ekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi va u o'ta murakkab, ziddiyatli, qarama qarshi, o'zini o'zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aql-idrok, tafakkur ob'ekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy jihatidan tadqiqotlar manbaidir.

Shaxs shakllanishining omillari sifatida, genetik (nasliy), biologik, tabiiy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi, o'z turdoshlari bilan munosabatlar xisoblanadi. Uning genetik jihat, nasliy asosi, ajdodlaridan yetib kelgan fizionomiya, fe'l-atvor bilan belgilanadi.

Ma'lumki, shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini namoyon etadi, shu sababli uni har tomonlama o'rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, sharqda u yuksak axloqiy-ma'naviy me'yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, beباو qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go'zal va farovon bo'lishiga ehtiyoj sezadi va bularning zamirida inson tafakkuri, intellektual qobiliyati turadi.

Mantiqiy tafakkur hayotni, atrof-vogelikdagi narsa-hodisalarning bir-biriga munosabatini idrok etish, tushunib yetishda nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lib, ajdodlarimiz bu haqiqatni IX-X asrlardayoq teran anglab yetganlar. Sunna davridayoq mo'tazila yo'nalishi namoyandalari Allohning yagonaligi va adolatini mantiqiy dalillash yo'llarini qidira boshladilar. Ushbu intilish natijasi o'laroq kalom ilmi shakllandı. Botiniylar ham Qur'on oyatlari ta'vilini mantiq qonuniyatları bilan muvofiq olib borishga intildilar. Asta-sekin kalom ilmining ash'ariya va moturidiya yo'nalishlari shakllandı. Mantiqiy tafakkur insonni fikrlash madaniyatiga o'rgatadi. Bashariyat ma'naviy takomili tarixida mantiqiy tafakkurning eng buyuk xizmati inson ongidagi asotir tafakkur asoratlarini yengib o'tishda namoyon bo'ldi. Mantiq ilmi asotir tafakkur va uning e'tiqoddagi asorati - mushriklikni shubha ostiga olishda yetakchi ahamiyatga ega bo'lganligidan islom mintaqqa madaniyatida jiddiy ehtiromga sazovor bo'ldi. Al-Kindiy, Al-Forobi, Abu Ali ibn Sino, Ibn Tufayl, Ibn Ro'shd kabi ulug' faylasuflar bu tafakkur tarzini yuksak darajada rivojlantirdilar. Ular merosi

Yevropa Uyg'onishiga hal qiluvchi turtki berdi. Mantiqiy tafakkur falsafiy va ilmiy tafakkurning asosini tashkil qiladi, shu sababli yoshlarga "Mantiq ilmi" dan saboq bermoq nihoyatda muhimdir. Ayniqsa, bugungi kunda axborot tizimlari va kompyuter ilmi hayotimizga kirib kelgan chog'da bu ilmning o'ta zarurati sezilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Sharafutdinova X.G'. Aqliy qobiliyatning qisqa tanlov testi // Maktab va hayot. - Toshkent, 2006. - №8. - B. 26-28.
2. Sharafutdinova X.G. Aqliy faoliyatning individual uslubini o'r ganish // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. - Samarqand, 2005. B. 27-29.
3. Narkulov, X. (2023). STUDY OF THE PROBLEM OF INTELLIGENCE AND THINKING IN PSYCHOLOGY. Modern Science and Research, 2(10), 987-991.